



BUXORO VILOYATI MAK TABGACHA VA MAK TAB TA`LIMI BOSHQARMASI TASARRUFIDAGI VILOYAT BOLALAR KUTUBXONASI

Bobur kabi seving Vatanni

Davlat arbobi, buyuk sarkarda Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining
542-yilligiga atab

(Uslubiy qo'llanma)



BUXORO -2025

72.3 Bobur kabi seving Vatanni:Uslubiy

B-79 qo'llanma/Tuzuvchi M.Ro'ziyeva, Buxoro:2025.

Mazkur uslubiy qo'llanma Zahiriddin Muhammad Boburning 542 yilligiga bag'ishlangan bo'lib, shoir hayoti va ijodi adabiy merosi bo'yicha axborot kutubxona muassasalarida o'tkaziladigan masalalar haqida so'z yuritiladi. Uslubiy qo'llanmada maktab kutubxonalarida o'tkaziladigan turli kitobxonlik tadbirlar turkumi tavsiya tarzida berilgan.



Bobur Mirzo xalqimizning buyuk farzandi. Adabiyot, ilm, ma'rifat nuqtayi nazaridan u hamon yashayapti... O'zligimizni anglab, buyuk tariximizni yoshlarga tushuntirsak, ilm-ma'rifatni rivojlantirsak, hech qachon kam bo'lmaymiz".
Sh.Mirziyoyev

KIRISH SO'ZI

Istiqlol tufayli tariximizni haqqoniy o'rganish imkoniga ega bo'ldik. Ko'plab buyuk bobokalonlarimiz asarlari singari Bobur ijodida ham yoshlarimiz uchun iboratomuz jihatlari ko'p. Uning Vatanni sevish, ota-onaga hurmat, do'stga sadoqat ko'rsatish xususidagi fikrlari kishiga yuksak ma'naviy saboq beradi.

Har bir inson o'zligini anglashga , ajdodlari haqida ko'proq bilishga, ular hayotini o'rganishga intiladi. Bu borada esa tarixiy asarlar beqiyos ahamiyatga ega. Zahiriddin Muhammad Boburshoh o'zbek-fors adabiyoti tarixida yorqin iz qoldirgan zullisonayn shoir, Movarounnahr, Afg'oniston va Hindiston tarixi, jug'rofiyasi, etnografiyasi, demografiyasi, iqlimi, folklori, muxtasar qilib aytganda, bu yurtlar hamda unda yashaydigan xalqlar haqida ko'plab aniq ma'lumotlarni beruvchi qomusiy asar – «Boburnoma»ning muallifidir.

O'zbek klassik adabiyotining ulkan namoyondalaridan biri, o'zbek adabiy tili va adabiyotining rivojiga bebaho hissa qo'shgan iste'dodli olim va o'ta ziyoli inson, mashhur davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur murakkab ijtimoiy-tarixiy davrda yashab ijod qilgan. Boburning ijodi, ayniqsa, «Boburnoma» asari jahon xalqlari orasida keng shuhrat qozonib, turli tillarga tarjima qilinib chop etilgan va etilmoqda. Jumladan, Boburning devoni ayrim qo'lyozmalar asosida bir necha bor turli o'lkalarda nashr etildi, uning hayoti va shaxsiyati, asarlari haqida alohida maqolalar, monografiyalar, risolalaru kitoblar yozilib, har tomonlama ilmiy tadqiq qilindi.

Boburiylar 1526-1858 yillarda Hindistonda hukmronlik qilgan sulola. Unga temuriylardan Zahiriddin Muxammad Bobur asos solgan. Chet ellarda Bobur va uning avlodini “Buyuk mo'g'ullar” deb atash odat bo'lib kelgan.

Boburiylar aslida yurtdoshimiz - temuriy Zahriddin Muhammad Boburning avlodlaridir. Ular tarixiy hujjatlarda o'zlarini Boburiy mirzolar deb yuritishgan. O'zbekiston mustaqilligi sharofati bilan, o'zbek halqining buyuk allomalari qatorida Zahiriddin Muhammad Bobur munosib mumtoz faoliyati hamda, buyuk iste'dod sohibi sifatida qilgan samarali ishlari xalqimiz tomonidan zo'r hurmat va ehtirom bilan esga olinmoqda va o'rganilmoqda.

Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodiy faoliyati

Zahiriddin Muhammad Bobur Andijon (1483 y. 14 fevral) da tug‘ilgan. Amir Temurning beshinchi avlodi, Farg‘ona hukmdori Umarshayxning farzandi. Bobur 12 yoshda (1494) taxtga chiqdi. 1503—1504 yillarda Afg‘onistonni egalladi. 1519—1525 yillarda Hindistonga 5 marta yurish qiladi. Uch asrdan ortiq davom etgan (1526—1858 y.y.). boburiylar sultanatiga asos solgan, 26-dekabr 1530-yil Agra, Indiyada vafot etkan. Qabri keyinchalik vasiyatiga ko‘ra Qobulga ko‘chirilgan. to‘liq ma'lumot: Bobur (taxallusi; to‘liq ismi Zahiriddin Muhammad ibn Umarshayx Mirzo)— o‘zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili: buyuk shoir; tarixchi, geograf; davlat arbobi, iste’dodli sarkarda; boburiylar sulolasi asoschisi, temuriy shahzoda. Boburning otasi — Umarshayx Mirzo Farg‘ona viloyati hokimi, onasi — Qutlug‘ Nigorxonim Mo‘g‘uliston xoni va Toshkent hokimi Yunusxonning qizi edi. Boburning onasi o‘qimishli va oqila ayol bo‘lib, Boburga hokimiyatni boshqarish ishlarida faol ko‘mak bergen, harbiy yurishlarida unga hamrohlik qilgan. Umarshayx Mirzo xonadoni poytaxt Andijonning arki ichida yashar edi. Hokim yoz oylari Sirdaryo bo‘yida, Axsida, yilning qolgan faslini Andijonda o‘tkazardi. Boburning yoshligi Andijonda o‘tgan. Bobur barcha temuriy shahzodalar kabi maxsus tarbiyachilar, yirik fozilu ulamolar ustozligida harbiy ta’lim, fiqh ilmi, arab va fors tillarini o‘rganadi, ko‘plab tarixiy va adabiy asarlar mutolaa qiladi, ilm-fanga, she’riyatga qiziqqa boshlaydi. Dovyurakligi va jasurligi uchun u yoshligidan «Bobur» («Sher») laqabini oladi. Bobur otasi yo‘lidan borib, mashhur sufiy — Xoja Ahrorga ixlos qo‘yadi va uning tariqati ruhida voyaga yetadi, umrining oxiriga qadar shu e’tiqodga sodiq qoladi. Otasi Axsida bevaqt, 39 yoshida fojiali halok bo‘lgach, oilaning katta farzandi, 12 yoshli Bobur valiahd sifatida taxtga o‘tiradi (1494 yil iyun). Movarounnahr 15-asr oxirida o‘zaro nizolashayotgan temuriy shahzodalar yoki mulkdor zodagonlar boshchilik qilib turgan, deyarli mustaqil bo‘lib olgan ko‘pdan-ko‘p viloyatlarga parchalanib ketgan edi. Movarounnahr taxti uchun kurash avjga chiqqan, turli siyosiy fitnalar uyuşhtirilmoqda edi. Buning ustiga Umarshayx Mirzoga tobe bir necha bek va hokimlar yosh hukmdorga (Boburga) buysunishdan bosh tortadilar. Ularning ayrimlari Boburning ukalarini yoqlasa, ba’zilari mustaqillik da’vosini qiladi, yana boshqa birlari Boburga raqib, boshqalari amaki, tog‘alariga qo‘shilib, uni jismonan yo‘qotish payiga tushadi. O‘z amakisi va tog‘asi bo‘lmish Sulton Ahmad Mirzo bilan Sulton Mahmudxon xurujlarini daf qilgan Bobur hukmronligining dastlabki 2—3 yilda mavqeini mustahkamlash, bek va amaldorlar bilan o‘zaro munosabatni yaxshilash, qo‘shinni tartibga keltirish, davlat ishlarida intizom o‘rnatish kabi muhim chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Boburning dastlabki siyosiy maqsadi Amir Temur davlatining poytaxti, strategik va geografik jihatdan muhim bo‘lgan Samarqandni egallash va Movarounnahrda markazlashgan kuchli davlatni saqlash, mustahkamlash hamda Amir Temur sultanatini qayta tiklashdan iborat

edi. Bu paytda, qisqa muddat ichida Samarqand taxtiga uchinchi hukmdor kelgan edi. Sulton Ahmad Mirzo vafoti (1494 yil iyul) dan keyin taxtga o‘tirgan Sulton Mahmud Mirzo Samarqandda davlatni 5—6 oydan ortiq idora etmadı — qisqa muddatli kasallikdan so‘ng 43 yoshida vafot etdi. Uning o‘rniga Buxoroda hokim bo‘lgan o‘g‘li Boysung‘ur o‘tiradi. 1495—96 yillarda Bobur Samarqandga ikki marta muvaffaqiyatsiz yurish qiladi. 1497 yil kuzida u Samarqand atrofidagi bir qancha joylarni va 7 oylik qamaldan so‘ng Samarqandni egallaydi, Boysung‘ur Qunduzga qochadi. Shahar qamal tufayli nihoyatda og‘ir kunlarni boshidan kechirmoqda edi. Hatto ekkulik don ham topish mushkul edi. Bobur qo‘sinni ta’minalashda katta qiyinchiliklarga duch keldi. Navkarlaridan ayrimlari Andijon va Axsi tomon qochib ketadilar. Buning ustiga Andijonda qolgan ayrim beklar Boburdan yuz o‘girib, uning ukasi Jahongir Mirzo tarafiga o‘tadilar. Andijondan ko‘ngli notinch bo‘lgan va iqtisodiy qiyinchiliklarga uchragan, ayni zamonda og‘ir xastalikni boshidan kechirgan Bobur Samarqandni yuz kun idora etgandan so‘ng, uni tark etishga qaror kiladi. Ammo Xo‘jandga yetganda Andijon ham qo‘ldan ketib, muxoliflar ixtiyoriga o‘tganini eshitadi. Boburning Toshkent hokimi, tog‘asi Mahmudxon ko‘magida Andijonni qayta egallahsga urinishi natija bermaydi, Bu muvaffaqiyatsizlik Bobur qo‘sining salbiy ta’sir etib, ko‘pchilik bek, navkarlar (700—800 kishi) Boburni tark etadi. O‘ziga sodiq kishilar (200—300) bilan qolgan Bobur ma’lum muddat Xo‘jandda turgach, Toshkentga — Mahmudxon huzuriga kelib, Andijonni qaytarib olish rejasini tuza boshlaydi. Ma’lum muddat o‘tgach, Bobur Xo‘jandga qaytadi, ko‘p o‘tmay, Marg‘ilonni qo‘lga kiritadi hamda Andijonni egallah tadbiralarini ko‘radi. Nihoyat, 2 yildan so‘ng (1498 yil iyun) uni qayta qo‘lga kiritadi. Bobur ukasi Jahongir Mirzo bilan sulh tuzib, uning ixtiyorida «Xo‘jand suvining Axsi tarafi viloyatlarini...» qoldiradi, Andijon tarafi viloyatlarini o‘z tasarrufiga oladi. Temuriylarning o‘zaro urushlari kuchaygan kezlarda Shayboniyxon Movarounnahrni istilo qilishga kirishadi. U 1499 yil Jizzax va Samarqand orqali Qarshi va Shahrabzgacha bosib boradi, katta o‘lja bilan Dashti Qipchoqqa qaytadi. Oradan ko‘p o‘tmay, katta kuch bilan Movarounnahrga qaytgan Shayboniyxon Buxoro va Qorako‘lni egallaydi (1499), Sulton Ali Mirzo kaltabinlik bilan Samarqandni Shayboniyxonga jangsiz topshiradi (1500). Biroq, shahar aholisi va zodagonlarining ma’lum qismi temuriylar hukmdorligini tiklash tarafdoi edi. Ular Farg‘ona hokimi Boburga maktub yo‘llab, Samarqandni ishg‘ol qilishga da’vat etganlar. Bobur 1500 yil kech kuzida o‘z qo‘sini (240 kishi) bilan Samarqandga yetib kelgach, aholi unga peshvoz chiqib, shahar darvozalarini ochib beradi. Shayboniyxonning shahar himoyasi uchun qoldirgan 600 nafar askari qirib tashlanadi. Shayboniyxon Buxoroga chekinadi. Qisqa vaqt ichida Samarqandning barcha tumanlari, Qarshi va G‘uzor shahrilari Bobur hokimligi e’tirof etiladi. Ammo shaharda oziq-ovqat zahiralari tugab, ocharchilik boshlangan edi. Bundan xabar topgan Shayboniyxon katta kuch to‘plab, yana Samarqandga yurish boshlaydi. 1501

yil aprelda Zarafshon bo‘yidagi Saripul qishlog‘i yaqinida bo‘lgan jangda Bobur qo‘shinlari yengiladi. Bobur Samarqandga chekinadi. Shahar yana qamal qilinib, u to‘rt oy davom etadi. Qamalda qolgan shahar aholisining ochlikdan tinkasi quriydi, Bobur 1501 yilning 2-yarmida noilojlikdan Samarqandni tark etib, Toshkentga, Mahmudxon huzuriga yo‘l oladi. Bobur Temuriylar sultanatini himoya qilish va uni saqlab qolish uchun astoydil harakat qilib, Shayboniyxonga qarshi bir necha yil davomida muttasil kurash olib borsa-da, ammo mamlakatda hukm surgan og‘ir iqtisodiy tanglik va siyosiy parokandalik sharoitida maqsadiga erisha olmaydi. 1503 yil Toshkent xoni Mahmudxon, Bobur va qalmoqlarning birlashgan qo‘shini Shayboniyxon tomonidan Sirdaryo bo‘yida tormor qilinadi. Bobur Samarqand taxti uchun kurashayotgan paytda Andijonni Sulton Ahmad Tanbal egallab oladi. 1501—04 yillarda Bobur Farg‘ona mulkini qaytarib olish uchun Sulton Ahmad Tanbal, Jahongir mirzolarga qarshi olib borgan kurashi muvaffaqiyatsizlik bilan tugaydi. Temuriylarning to‘xtovsiz janglari va og‘ir soliqlaridan toliqqan xalq Boburni qo‘llamadi va u Movarounnahrni tark etishga (1504 yil iyun) majbur buladi. Bobur 200—300 navkari bilan Hisor tog‘lari orqali Afg‘onistoniga o‘tadi va u yerdagi ichki nizolardan foydalanib G‘azni va Kobulni egallaydi. Bobur Kobulni egallagach, mustaqil davlat tuzishga jadal kirishadi, qo‘shinni tartibga keltiradi, qattiq ichki intizom o‘rnatadi. Kobulga, umuman Afg‘onistoniga Bobur o‘z yurti kabi qaradi, qurilish, obodonlashtirish, kasbu hunar va qishloq xo‘jaligini rivojlantirish ishlarini boshlab yuboradi. «Bog‘i Shahroro», «Bog‘i Jahonoro», «O‘rtabog‘», «Bog‘i vafo» va «Bog‘i Bobur» kabi oromgoxlar tashkil etdi. Shahar ichidagi Bolo Hisor qal’asini o‘z qarorgohiga aylantirib, uni qayta ta’mirlatdi, yangi imoratlar qurdirdi va oilasi bilan shu qal’ada yashadi. Uning Humoyun, Gulbadanbegim, Komron va Hindol ismli farzandlari shu yerda tug‘iladi. 1506 yil bahorda vafot etgan Qutlug‘ Nigorxonim Mirzo Ulug‘bek shu yerda bunyod etirgan «Bog‘i Navro‘ziy»ga dafn etiladi. Bobur Afg‘onistonda bir fotih sifatida emas, balki shu yurt, el obodonligi va ravnaqi uchun jon kuydirgan tadbirli hukmron sifatida qizg‘in faoliyat ko‘rsatdi, uning manfaatlari yo‘lida odilona va oqilona ish tutdi. Afg‘onistondagi amaliy faoliyatiga ko‘ra, Bobur butun Xuroson va Movarounnahrda qudratli davlat boshlig‘i va muzaffar sarkarda sifatida katga obro‘ orttira bordi, mintaqadagi siyosiy hayot e’tiborli o‘ringa ko‘tarildi. Shayboniylarning tobora kuchayib borayotgan yurishiga qarshi birgalikda chora ko‘rish masalasida Sulton Husayn Boyqaro barcha temuriy hukmdorlar qatorida Boburni ham maslahat yig‘iniga maxsus taklif etishi ana shunday yuksak nufuzni ko‘rsatuvchi dalildir. Bobur shu taklif bo‘yicha Hirotg‘a otlanadi. Husayn Boyqaroning to‘satdan vafot etishiga (1506) qaramay, u Hirotg‘a boradi va temuriy hukmdorlar bilan uchrashib muzokaralar o‘tkazadi.

Temuriy hukmdorlarning birlashib Shayboniyxon qo‘shinlariga to‘siq qo‘yish rejalari amalga oshmaydi va tez orada birin-ketin mag‘lubiyatga uchrab, sultanatni batamom qo‘ldan chiqaradilar. 1507 yil boshlarida Bobur

Hindistonga yurish boshlaydi. Ammo, bu urinishi muvaffaqiyatsiz tugab, yana poytaxt Kobulga qaytadi. Bobur Movarounnahr va Xurosondagi siyosiy vaziyat va urush harakatlarini kuzatib boradi, o‘z qo‘sishinlarini doimo shay tutadi. Shayboniyxon Xurosonning yirik markazlarini qo‘lga kiritgach, Eronni zabit etish uchun yurish boshlaydi. Ammo, Eron shohi Ismoil Safaviy bilan qattiq to‘qnashuvda (1510) yengiladi, o‘zi ham Marvda halok bo‘ladi. Shoh Ismoil Xuroson va Movarounnahrga qo‘sishin kiritib shayboniylargacha ketma-ket shikast yetkaza boshlaydi. Bobur shoh Ismoil bilan harbiy-siyosiy ittifoq tuzib, 1511 yil bahorida Hisorni, yozida Buxoroni, oktyabr boshida esa Samarcandni yana qo‘lga kiritadi. Boburning shia mazhabidagi eroniylar ra’yi bilan ish tutishi aholida norozilik tug‘diradi. 1512 yil 28 aprelda Ko‘li malik jangida Ubaydulla Sulton boshliq shayboniylardan yengilgan Bobur Hisor tomon ketadi. 1512 yil kuzida Bobur shoh Ismoil yuborgan Najmi Soniy laqabli lashkarboshi bilan Balxda uchrashib, Amudaryodan kechib o‘tib, avval Huzar (G‘uzor) qal’asini oladi, so‘ng Qarshiga yurish qiladi, shahar uzoq muddatli qamaldan so‘ng taslim bo‘ladi, shahar himoyachilari qattiq jazolanadi. 1512 yil 24 noyabrda G‘ijduvon jangida Bobur shayboniylardan yana yengilib, Kobulga qaytishga majbur bo‘ladi. Bobur Movarounnahrni egallash ilinjidan uzil-kesil umidini uzadi va butun e’tiborini Hindistonga qaratadi. 1519 yil bahoriga kelib Bobur Hindistonni zabit etish rejalarini amalga oshirishga kirishadi va keyingi 5—6 yil davomida bir necha yurishlar uyuştiradi. Nihoyat, 1526 yil aprelda Panipatda asosiy raqibi, Dehli sultoni Ibrohim Lo‘diyning yuz ming kishilik qo‘sishini 12 minglik askari bilan tor-mor qiladi hamda Dehlini egallaydi. Oradan ko‘p o‘tmay, ikkinchi yirik hind sarkardasi Rano Sango ustidan ham zafar qozonib, Shimoliy Hindistonning Bengaliyagacha bo‘lgan qismini o‘ziga bo‘ysundiradi. Agrani o‘ziga poytaxt sifatida tanlagan Bobur katta qurilish va obodonchilik ishlarini boshlab yuboradi. Shu tariqa Bobur Hindistonda uch yarim asrga yaqin hukm surgan qudratli boburiylar sulolasiga asos soladi. Bobur Hindistonda ham, xuddi Afg‘onistonda bo‘lganidek, ko‘plab ijtimoiy-xayrli ishlarni amalga oshirdi, mamlakat taraqqiyotiga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Tarqoqlik va parokandalikka, o‘zaro ichki nizo, qirg‘inlarga barham berib, viloyatlarni birlashtirdi, markazlashgan davlatni mustahkamlash va yurtni obodonlashtirishga, ilmu hunar va dehqonchilikni rivojlantirishga katta e’tibor qaratdi. Qurilish ishlariga boshchilik qildi. Boburning o‘z guvohligiga ko‘ra, shoir sifatida ijodiy faoliyatni Samarqandni ikkinchi marta egallagan vaqtida boshlangan; «Ul fursatlarda biror-ikkirar bayt aytur edim», deb yozadi u. Bobur Samarqanddaligining ilk oylarida Alisher Navoiy tashabbusi bilan ular o‘rtasida yozishma boshlanadi. Bobur atrofida ijodkorlar to‘plana boshlashi ham shu yillarga to‘g‘ri keladi. Jumladan, Binoiy, Abulbaraka va Bobur o‘rtasidagi ruboiy mushoirasi Samarqanddagagi qizg‘in adabiy hayotdan darak beradi. Umuman, davlat arbobi va ko‘p vaqtin jangu jadallarda o‘tgan sarkarda sifatida ijtimoiy faoliyatining eng qizg‘in davrida ham, shaxsiy hayoti va davlati nihoyatda murakkab va xatarli sharoitda qolgan chog‘larida ham Bobur


ijodiy ishga vaqt topa bilgan, ilm, san’at va ijod ahlini o‘z atrofiga to‘plab, homiylik qilgan, ularni rag‘batlantirgan.

O‘tmish adabiyot va tarix, musiqa va san’atdan yaxshi xabardor bo‘lgan, diniy ta’limotga chin ixlos qo‘ygan Bobur har doim olimu fozillar davrasida bo‘ldi, xususan ijod ahliga, kasbu hunar sohiblariga samimiy ehtirom ko‘rgazib homiylik qildi, ularni moddiy va ma’naviy rag‘batlantirib turdi. Ijod va san’at ahliga bunday mehrli munosabat aslo bejiz bo‘lmagan. Bobur tabiatan ijodkor edi. Yigitlik yillaridan boshlab to umrining oxirigacha samarali ijodiy ish bilan shug‘ullandi, har qanday sharoit va vaziyatlarda ham ijoddan to‘xtamadi, natijada, har jihatdan muhim boy ilmiy va adabiy meros qoldirdi. Bobur 18—19 yoshlarida ruboiy va g‘azallar yoza boshlagan. Uning «Topmadim» radifli g‘azali va «Yod etmas emish kishini g‘urbatda kishi» misrasi bilan boshlanuvchi ruboysi o‘sha yillardagi hayoti bilan bog‘liq. Boburning ulkan san’atkorligi shundaki, shaxsiy kechinmalarini jiddiy umumlashma darajasiga ko‘tara oladi va natijada asarlarida olg‘a surilgan g‘oyalar umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko‘tariladi. Bobur ijodida, xususan, she’riyatida kindik qoni to‘kilgan ona yurtini dildildan qo‘msash, uning tuprog‘iga talpinish, g‘ariblik azoblaridan o‘tli hasrat, yoru diyor soginchi va visol ilinji, taqdir zARBalari va turmush uqubatlari, zamona nosozliklaridan nola badiiy tahlil etiladi. Bobur ijodida ishq-muhabbat, sevgisadoqat, visol va hijron mavzui ham salmoqli o‘rin tutadi. Uning g‘azal va ruboilarida, tuyuq va masnaviylarida ma’shuqaning maftunkor go‘zalligi, beqiyos husnu latofati, sharqona odobu axloqi, nozu karashmasi yengil va o‘ynoqi, musiqiy va ravon misralarda katta mahorat bilan tarannum etiladi. Boburning o‘z she’riy asarlarini to‘plab, devon holiga keltirgan sanani ko‘rsatuvchi aniq tarixiy ma’lumotlar ma’lum emas. Hozirda uning 119 g‘azali, bir masnu she’ri, 209 ruboysi, 10 dan optik tuyuq va qit’alari, 50 dan ortiq muammo va 60 dan ziyod fardlari aniqlangan. Devoni tarkibida umumiylajmi 270 baytdan iborat 8 masnaviy ham o‘rin olgan. Hindiston yurishlari davri (1521)da Bobur «Mubayyin» asarini yaratdi. Masnaviy tarzida yozilgan, islom huquqshunosligi va shariat aqidalariga bag‘ishlangan bu asarda Movarounnahr va Hindistonga oid o‘sha davr ijtimoiy-iqtisodiy hayoti bo‘yicha qiziqarli ma’lumotlar ham jamlangan. Valiahd Humoyun va Komron Mirzolarga dasturulamal sifatida mo‘ljallangan «Mubayyin»da, ayni zamonda, namoz, zakot va haj ziyorati to‘g‘risida ham shar‘iy mezonlar bayon qilingan. Shu yillarda Bobur Sharq she’riyatining asosiy masalalaridan biri aruz vazni, uning nazariyasi va amaliyotiga oid ilmiy risolasini yakunlaydi. 1526 yil 21 dekabrda Boburga qarshi suiqasd uyushtiriladi. Mahv etilgan Ibrohim Lo‘diyning onasi oshpazlar bilan til biriktirib, uning ovqatiga zahar qo‘shtiradi. Shuning asoratimi yoki ko‘p yillik mashaqqatli va qo‘nimsiz hayot ta’sirimi, har holda keyingi yillarda Bobur tez-tez kasalga chalinib turadi. 1527 yil oktyabrda Bobur yana xastalikka uchragach, umrining oxirlab qolganini his etadi. Shunda Bobur o‘zi e’tiqod qo‘ygan Xoja Ahror Valiyga ixlos bilan uning

nasrda bitilgan «Voldiya» asarini she’riy tarjima qiladi. Boburning mohir tarjimon sifatidagi qobiliyati namoyon bo‘lgan 243 baytli bu asar katta ijodiy ilhom bilan juda qisqa muddatda yakunlangan. Boburning o‘z e’tiroficha, tarjima tugashi hamonoq batamom sog‘ayib ketgan. Bu yillarda u «Boburnoma» fasllari ustida ishlashni davom ettirdi, yangi-yangi g‘azal-ruboiylar yaratdi, o‘z iborasi bilan aytganda, «Hindistong‘a kelgali aytqon ash’orni» tartibga solib, shuningdek, «Voldiya» tarjimasini, «Xatti Boburiy» bilan bitilgan namuna va qit’alarni Movarounnahr va Afg‘onistonga, Xumoyun, Xoja Kalon, Hindol va boshqaga yubordi. Humoyun Mirzoga atalgan ijtimoiy-axloqiy masalalarni tahlil etuvchi mashhur maktubi ham Bobur ijodiy faoliyatining yorqin qirralaridan biri bo‘ldi. Bir necha muddat oldin podsholikni Humoyunga topshirgan Bobur 47 yoshida o‘zi asos solgan saltanat poytaxti Agrada vafot etdi va o‘sha yerda dafn etildi, keyinchalik (1539), vasiyatiga muvofiq xoki Kobulga keltirilib, o‘zi bunyod etirgan «Bog‘i Bobur»ga qo‘yildi.

“Boburnoma” o‘zbek adabiyotining tarixiy-ilmiy asari

Boburnoma — jahon adabiyoti va manbashunos ligidagi muhim va noyob yodgorlik; o‘zbek adabiyotida dastlabki nasriy memuar va tarixiy-ilmiy asar. Eski o‘zbek (chig‘atoy) tilida yozilgan (taxminan 1518/1519—1530). “Boburiya”, “Voqeoti Bobur”, “Voqeanoma”, “Tuzuki Boburiy”, “Tabaqoti Boburiy”, “Tavorixi Boburiy” kabi nomlar bilan ham ma’lum. Boburning o‘zi esa “Vaqoye” va “Tarix” degan nomlarni ishlatgan. Boburnomada 1494-1529-yillarda Markaziy Osiyo, Afg‘oniston va Hindistonda sodir bo‘lgan tarixiy-siyosiy voqealar yilma-yil o‘ta aniqlik bilan bayon qilingan bo‘lib, ular muallif hayoti va siyosiy faoliyati bilan bevosita bog‘liqdir.



“Boburnoma” o‘zida bayon qilingan voqealar jarayoniga ko‘ra 3 qismga: Boburning Movarounnahr (1494—1504), Afg‘oniston (1504—1524) va Hindiston (1524—1530)dagi hukmdorlik davriga bo‘linadi. Birinchi qismda Boburning otasi — temuriylarning Farg‘ona ulusi hokimi Umarshayx Mirzo (1461—1494) xususida hamda Boburning Farg‘ona taxtiga o‘tirishi (1494-yil iyun), ammo Temuriylar davlatida avj olgan taxt uchun kurash oqibatida o‘z ulusidan mahrum bo‘lishi (15-asr 90- yillari), Samarqand uchun Shayboniyxonqa qarshi olib borgan jangu jadallari (1497—1501)ning behuda ketishi va nihoyat, toju taxtdan butunlay ajrab, Hisor tog‘lari orqali taxminan 250 navkar bilan Afg‘onistonga yuz tutishi (1504) haqidagi voqealar batafsil zikr qilingan. Ikkinci qismda Boburning Kobulni zabit etgani, so‘ng u yerda mustaqil davlat tuzgani (1508), Eron shohi Ismoil Safaviyning harbiy yordami bilan Samarqandni yana ishg‘ol qilgani (1511), lekin shayboniylar (Ubaydulla

Sulton, Muhammad Temur Sulton va Jonibek Sulton)dan yengilib (1512), Kobulga qaytgani, keyin esa Hindistonni zabit etishga hozirlik ko‘ra boshlagani xususidagi voqealar bayon etilgan. Uchinchi qism esa Boburning Dehli sultoni Ibrohim Lo‘diyni mag‘lub etib (qarang Panipat janglari), Shim. Hindistonni bosib olgani (1526) va Boburiylar davlatini barpo qilgani haqidagi ma’lumotlardan iborat.

“Boburnoma“da keltirilgan barcha ma’lumotlar, xususan Farg‘ona, Toshkent, Samarqand, Hisor, Chag‘oniyon va Shim. Afg‘onistonning 15-asr 80—90- yillari va 16-asr 1choragidagi siyosiy ahvoliga doir xabarlar o‘zining batafsilligi bilan shu xususdagi boshqa adabiyotlardan tubdan farq qiladi. Shuningdek, asar muallifning muayyan tarixiy voqeа haqida hamda o‘zaro dushmanlik qilgan temuriylar — Umarshayx, Sulton Ahmad, Sulton Mahmud, Boysung‘ur Mirzo, Sulton Husayn va boshqalarning xulq-atvori, tabiat xususida bildirgan fikr-mulohazalari bilan ham ahamiyatlidir. Asarda, ijtimoiy-tabiiy fanlar, tarix, falsafa, fiqh, din ta’limoti, tilshunoslik, jug‘rofiya, tabiatshunoslik, ma’danshunoslik, dehqonchilik, bog‘dorchilik va boshqalarga oid aniq va hanuzgacha o‘z tarixiy va ilmiy ahamiyatini yo‘qotmagan ma’lumotlar, ilmiy asoslangan xulosalar keltirilgan. Asarda bevosita Boburning o‘zi lashkarboshi sifatida qatnashgan bir necha katta-kichik jang manzaralari mahorat bilan berilgan. O‘sha davrdagi qo‘shin tuzilishi, urush olib borish, jang usullari, qamal holatlari, qurol-yarog‘ turlari, qurg‘onbuzar qurilmalar bilan bir qatorda asarda ko‘plab harbiy ma’muriy istilohlar (tuman, ulus, ko‘kaltosh, eshikog‘a, axtachi, taxxon, shig‘ovul, sharbatchi (sharbatdor), mubashshir, tug‘chi, miroxur, rikobdor, dorug‘a, murchil, manjaniq, o‘ron va boshqalar) ham uchraydi. Shuningdek, „Boburnoma“da temuriylar qo‘shinining tuzilishi, harbiy san’ati va boshqa haqida ham noyob ma’lumotlar bor. Bundan tashqari, Movarounnahr, Afg‘oniston, Xuroson va Hindiston o‘tmishi va zamonaviy holati, xalqlari, qabilalari, ularning tili, madaniyati, kasb-hunari, urf-odatlari, rasm-rusumlari, an’anaviy tadbir-marosimlari, shuningdek o‘sha davr jamiyatiga xos ijtimoiy tabaqalarga tegishli ma’lumotlar bayon etiladi. Ayniqsa Farg‘ona, Andijon, Samarqand, Kobul, Hirot, Agra kabi yirik shahar, viloyatlarning jug‘rofiy-ma’muriy tuzilishi, madaniy hayoti, tumanlari, aholisi, qishloq xo‘jaligi, daryo va suv havzalari, cho‘l-adirlari, tog‘, sahrolari, bog‘u -rog‘lari, tabiat, iqlimi, hayvonot va o‘simgiliklar dunyosi, tabiiy boyliklari haqida mufassal ma’lumotlar beriladi. Xususan 15-16-asrlarda Turkiston viloyatida yashagan qora qo‘yluk (qo‘yunluk) qabilasining hamda Movarounnahrdagi turk-mo‘g‘ul qabilalarining urf-odatlari, harbiy mahoratlari haqidagi ma’lumotlar, ayniqsa ilmiy jihatdan g‘oyatda qimmatli bo‘lib, ular o‘zbek, qozoq, qirg‘iy, turkiy zabon xalqlar etnik tarixini o‘rganuvchilar uchun muhim ahamiyatga egadir. „Boburnoma“ da Farg‘ona, Samarqand shaharlari va shu nomdagi viloyatlar, Ohangaron vodiysi, O‘ratepa va uning atrofi, Mascho, Hisor, Chag‘oniyon, Badaxshon, Kobul viloyati va boshqa joylar

geografik jihatdan g‘oyatda qiziqarli tavsif qilingan bo‘lib, muallif o‘zi yurgan yo‘llar, o‘zi bo‘lgan shahar va qishloqlarni g‘oyat darajada aniq tasvirlagan. “Boburnoma”da Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Shayxim Suhayliy, Husayn Ali Tufayliy, Osafiy, Binoiy, Sayfiy Buxoriy, Ohiy, Muhammad Solih kabi o‘nlab ijodkorlar, Xoja Abdullo Marvariyy, Qul Muhammad Udiy, Shayx Noyiy, Yusuf Ali, Mullo Yorak, Shohquli G‘ijjakiy, Husayn Udiy, Behzod, Shoh Muzaffar kabi ko‘plab san’atkorlar tavsif etilib, ularning ijodiy faoliyatlariga xolis baho beriladi. Jumladan, Alisher Navoiy haqida shunday deyiladi: “Alisherbek naziri yo‘q kishi edi. Turkiy til bila to she’r aytibturlar,— hech kim oncha ko‘p va xo‘b aytqon emas”.

“Boburnoma” 15-asr o‘zbek badiiy nasrining yorqin namunasi sifatida sof badiiy lavhalar, jonli tasvirlar, an’anaviy lirik chekinishlarga boy. Nasriy matn ichida keltirilgan xalq maqol, matallari, iboralari, ibratli o‘gitlar, she’riy parchalar uning badiyligini yanada oshiradi, o‘ziga xos joziba bag‘ishlaydi. “Boburnoma” 16-asrdan boshlab hozirgacha dunyoning ko‘p tillari — ingliz, golland, fransuz, fors, nemis, italyan, rus, hind, urdu va boshqa tillariga bir necha martalab tarjima qilindi, sharh-izohlar bilan nashr etildi. Angliya, Amerika, Fransiya, Rossiya, Hindiston, Pokiston, Afg‘oniston, Turkiya, Yaponiya kabi o‘nlab mamlakat olimlarining ilmiy tadqiqotlarida “Boburnoma”ning insoniyat yaratgan o‘lmas obidalar qatorida alohida o‘rinda turishi ta’kidlanadi. “Boburnoma”ning jahonga mashhur bo‘lishida, asosan ingliz sharqshunoslarining xizmati katta bo‘ldi. Yevropadagina emas, balki jahonda birinchi to‘liq nashrini (ingлиз tilida) 1826-yilda J. Leyden va V. Erskin amalga oshirdi. F. Talbot esa mazkur nashr asosida 2-marta (1878, 1909) uning qisqartirilgan nashrlarini chop ettirdi. 1921-yilda ingliz sharqshunosi A. Beverij “Boburnoma”ni mustaqil suratda asl nusxdadan qayta tarjima qildi. Birgina Angliyaning o‘zida “Boburnoma” tarjimalari to‘qqiz marta nashr etildi. Keyingi yillarda “Boburnoma” ning professor V. Takston tomonidan AQShda (Kembrij shahri, Garvard universiteti, 1993) hamda ikki jild hajmda, mukammal so‘zlik, ko‘rsatkich va sharhizohlar bilan Yaponiyada (Kioto, 1995—96) ilmiy tanqidiy matni nashr etildi.

Ma’lumki, “Boburnoma” qo‘lyozmalari matnida ba’zi yillar (1504—05, 1509—18, 1520—24) tafsiloti uchramaydi, 1508 va 1520-yil voqealari bayoni tugal emas. Mana shu uzilish bo‘lgan o‘rnlarni ingliz sharqshunoslari boshqa tarixiy manbalar asosida ma’lum darajada tiklaganlar. “Boburnoma” forsчaga (1586), undan parchalar Vitsen tomonidan golland tiliga (1705), A. Keyzer tomonidan qisqartirilgan holda nemis tiliga (1828), Pave de Kurteyl tomonidan to‘la holda fransuz tiliga (1871) tarjima qilingan. “Boburnoma”ni tarjima qilish va tadqiq etishda, shuningdek Afg‘oniston (Abdulxay habibiy), Pokiston (Rashid Axtar Nadviy, Shoh Olam Mavliyot), Hindiston (Mirzo Nasriddin Haydar, Muhibbul Hasan Rizviy), Turkiya (R. R. Arat va N. I. Bayur) kabi

mamlakatlar olimlarining xizmati ham katta. Rus sharqshunoslari (N. I. Pantusov, S. I. Polyakov, V. Vyatkin) ham „Boburnoma“ dan parchalarni tarjima qilganlar. N. I. Ilminskiy „Boburnoma“ni Qozonda nashr ettirdi (1857).

“Boburnoma” ni hamda Boburning she’riy merosini o‘rganishda o‘zbekistonlik olimlar ham salmoqli hissa qo‘shdilar. Prof. Fitrat tomonidan tuzilgan “O‘zbek adabiyoti namunalari” xrestomatiyasida “Boburnoma”dan parchalar, Boburning 31 g‘azali, 2 masnaviy va 28 ruboysi berilgan. M. Salye “Boburnoma” ni rus tiliga to‘la tarjima qilib, 3-marta (1958, 1982, 1993) nashr ettirdi (S. Azimjonovaning kirish so‘zi va tahriri ostida). P. Shamsiyev va S. Mirzayevlar tomonidan “Boburnoma”ning ikki jildli (1948) va bir jildli (1960) nashri chop etildi. 1956—66 yillarda Boburning uch jildli tanlangan asarlari chop etilib, unga Boburning she’riy devoni (1jild) va “Boburnoma” (2—3jildlar) kirgan. Bobur va uning ilmiy merosini o‘rganishga S. Azimjonova katta ulush qo‘shtigan. “Boburnoma”ning M. Salye tomonidan qilingan tarjimalari uning bat afsil so‘z boshisi va tahriri ostida nashr etilgan.



Mustaqillik yillarida Bobur yodi

Bobur O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng o‘z yurtida haqiqiy qadr-qimmat topdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga ko‘ra 1993 yilda Bobur tavalludining 510-yilligi tantanali nishonlandi. Andijon shahrida Bobur nomida universitet, teatr, kutubxona, milliy bog‘ bor. Bobur milliy bog‘i majmuasitsa «Bobur va jahon madaniyati» muzeyi, shoirning ramziy qabr-maqbarasi bunyod etilgan. Shahar markazida (muallifi Ravshan Mirtojiev) va Bobur bog‘idagi yodgorlik majmuida (muallifi Qodirjon Salohiddinov) shoirga haykal o‘rnatildi. Andijondagi markaziy ko‘chalardan biriga, shuningdek Toshkentdagi istirohat bog‘i va ko‘chaga, Andijon viloyati, Xonobod shahridagi istirohat bog‘iga Bobur nomi berildi. O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Bobur nomidagi medali ta’sis etildi. Sharqshunos olim Ubaydulla Karimov bu medalning birinchi sovrindori bo‘ldi. Andijonlik tabiatshunos olim Zokirjon Mashrabov rahbarlik qiladigan Xalqaro Bobur jamg‘armasi (1993.23.12) Bobur ijodini o‘rganishda katta ishlarni amalga oshirdi. Jamg‘armaning ilmiy ekspeditsiyasi 10 dan ortiq Sharq

mamlakatlari bo‘ylab avtomobilda ilmiy safarlar uyuştirib, 200 ming km dan ortiq masofani bosib o‘tdi, Bobur va boburiylar qadamjolari, ularning ilmiy merosiga oid yangi ma’lumotlar to‘plab, ularni ilmiy iste’molga kiritdi. Mazkur ma’lumotlar asosida 10 dan ziyod ilmiy, hujjatli, badiiy asarlar (Z. Mashrabov, S. Shokarimov: «Asrlarni bo‘ylagan Bobur»; S. Jalilov: «Boburning Farg‘ona davlati», «Bobur va Andijon»; Qamchibek Kenja: «Hind sorig‘a»; X. Sultonov: «Boburning tushlari», «Boburiynoma»; R. Shamsuddinov: «Boburiylar izidan», «Boburiylar sulolasi»; T. Nizom: «Uch so‘z»), 10 ga yaqin hujjatli, videofilmlar (F. Rasulov: «Bobur izidan», «Muqaddas qadamjolar»; T. Ro‘ziev: «Bobur salomi», «Bobur nomidagi Xalqaro ilmiy ekspeditsiya»; T. Hamidov: «Iftixor» va h.k.) yaratildi. Jamg‘armaning Lohur (Pokiston), Haydarobod (Hindiston), Abu Dabi (Birlashgan Arab Amirliklari), Moskva (RF), O‘sh (Qirg‘iziston), Toshkent, Namangan (O‘zbekiston) shahrilarida bo‘limlari mavjud. 1998 yil Jamg‘armaning boburshunoslik sohasidagi xalqaro mukofotlari ilk marta Pirimqul Qodirov, Sabohat Azimjonova, G‘aybulloh as-Salom, Ne’matilla Otajonov, Xayriddin Sultonov, Eyje Mano (Yaponiya), Muhammadali Abduqunduzov, Maqsud Yunusov, Shafiqqa Yorqin (Afg‘oniston), Ma’murjon To‘xtasinov, Ravshan Mirtojiev, Majid Tursunov, Rahmonjon Azimov, Muhammadjon Mirzaevga berildi. Tafakkur Tafakkur asarlari Barcha

“O‘zbek xalqining buyuk ajdodi!” mavzusida madaniy-ma’rifiy kecha ssenariysi

Sahna kirish yo‘laklari bezatilgan, karnay surnay, doira shox sadolari mehmonlarni bayramga chorlab turibdi. Ma’naviyat maydoni bayramona bezatilgan. Mavzuga oid kitob ko‘rgazmasi tayyorlangan. Sahnaga boshlovchilar musiqa sadolari ostida chiqib kelishadi.

1-boshlovchi: Assalomu alaykum, aziz va mehribon ustozlar-u, hurmatli ottonalar!

2-boshlovchi: Assalomu alaykum, bilimga chanqoq, sho‘x-shodon, kitobxon o‘quvchilar.

1 – boshlovchi: – Bugun biz sizlar bilan bu yerda temuriylar avlodining iste’dodli vakili, atoqli shoir, buyuk sarkarda Zahiriddin Muhammad Bobur hazratlarining tavallud ayyomini nishonlashga yig‘ilganmiz.

2 – boshlovchi: – Shoh va shoirning suronli hayot yo‘li, uning Hind tuprog‘ida amalga oshirgan buyuk ishlari, jahon adabiyotiga qo‘sghan ulkan hissasi birin – ketin gavdalananadi.

1 – boshlovchi: – Z. M. Bobur 1483-yil 14-fevralda o‘zining “Boburnoma” asarida mahorat bilan tasvirlagan go‘zal Farg‘ona viloyatining poytaxti

Andijonda tug‘iladi. Otasi – temuriylar avlodidan bo‘lgan Umarshayx Mirzo o‘sha davrda Farg‘ona viloyati hokimi edi.

2 – boshlovchi: – 1495-yil Umarshayx Mirzo fojeali ravishda vafot etadi.

Viloyatni boshqarish 12 yoshli Bobur zimmasiga tushadi.

2 – boshlovchi: – Toju taxt, sultanat ishlari, jangu jadallar – bularning bari uning murakkab hayotidan dalolat beradi.

1 – boshlovchi: – Bobur Shayboniyxon qo‘shinlari qamal qilgan Samarqandni tashlab, Afg‘oniston orqali Hindistoni egallaydi va umrining oxirigacha Hindistonda yashab, ijod qiladi, sultanatni boshqaradi.

2 – boshlovchi: – O‘g‘li Humoyun, nabirasi Akbarlar uning faoliyatini davom ettiradi.

1 – boshlovchi: – Boburiylar sulolasini bir necha yuz yillar davomida Hindistonda hukmronlik qilishadi.

O‘quvchilar shoir ijodidan namunalar keltirishdi.

1 – o‘quvchi: Davlatga yetib mehnat elin unutma,

Bu besh kun uchun o‘zingni asru tutma.

Borg’onni kel emdi, yod qilma, ey do’st,

Borish – kelishingni lutf etib o’ksutma.

2 – o‘quvchi: Eshitsa kishi bu sho‘ru shevan ne degay,

Doim bu tariq ichguni ko’rgan nedegay,

Dushman so‘ziga kirma, eshit do’st so‘zin,

Eshitmasa so‘zni do ‘;st, dushman ne degay.

1 – o‘quvchi: – O‘zbek adabiyotining atoqli namoyondalaridan biri Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zining qisqa va murakkab hayoti davomida sermahsul ijod qila olgan buyuk iste’dod sohibi edi.

2 – o‘quvchi: – Shoirning to‘liq bo‘limgan devoni, “Mubayyin” nomli she’riy risolasi, “Voldiya” deb atalguvchi kitobchasi, Bobur tuzgan “Xatti Boburiy” nomi bilan mashhur bo‘lgan alifbo hamda yirik me’muar asar “Boburnoma” ana shular jumlasidandir.

3 – o‘quvchi: – “Boburnoma” asarining mazmuni rang – barang bo‘lib, O‘rta Osiyo, Afg‘oniston, Hindiston, Eron xalqlari tarixi, geografiyasи va etnografiyasiga oid muhim ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgandir.

4 – o‘quvchi: Tili va uslubi ravon hamda go‘zal assarning asl nomi “Boburiya” bo‘lsada, u “Voqenoma”, “Voqeati Boburiy”, keyinchalik “Boburnoma” deya atala boshlagan.

5 – o‘quvchi: – Asarni o‘qir ekanmiz, o‘sha davr Afg‘oniston va Hindistonga taluqli bo‘lgan geografik atamalar, o‘simlik va hayvonot olami, tarixiy

shaxslar bilan tanishamiz.

6 – o‘quvchi: – Farg‘ona viloyati poytaxti bo‘lmish Andijon haqida “Boburnoma”da juda keng ma’lumotlar berilganini guvohi bo‘lamiz.

7 – o‘quvchi: – “Oshlig‘ mo‘l, mevasi farovon. Qovun va uzumi yaxshi bo‘lur. Pishiqchilik mashali poliz boshida qovun sotish rasm emas” kabi go‘zal vodiy tabiatи va qadriyatлari haqida ham bilib olamiz.

1 – o‘quvchi: – XX asr o‘zbek roman chiligidida adibimiz Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” (“Bobur”), “Humoyun va Akbar” (“Avlodlar dovonи”) kabi tarixiy asarlari muhim rol o‘ynaydi.

2 – o‘quvchi: Yozuvchi Bobur hayoti, uning Hindistondagi faoliyatini, buyuk sarkarda tuzgan ulkan saltanat Boburiylar saltanati davomchilarini romanlarida g‘oyat mahorat bilan tasvirlab bergen.

1 – o‘quvchi: Asarni o‘qir ekanmiz, buyuk siymo Zahiriddin Muhammad Boburning dastlab Andijondagi hayoti va ijodi bilan mukammal tanishamiz. O‘quvchilar ijrosida Vatan haqida qo‘sinq ijro etiladi.

1 – o‘quvchi: Bobur o‘zbek adabiyotida lirik janrlar rivojiga katta hissa qo‘sungan xassos shoirdir. Uning lirikasini g‘azal, ruboiy, qit‘a, tuyuq, masnaviy va muammolar tashkil etadi. Bobur she’riyatida ona yurtga muhabbat, vatanni qo‘msash, motivlari katta o‘rin egallaydi. U ushbu kechinmalarini, ayniqsa ruboiylarida keng ko‘lamda ifoda etadi. O‘quvchilar Z. M. Bobur ruboiylaridan namunalar o‘qishadi.

1-o‘quvchi: Davron meni o‘tkardi sar-u, somondin,
Ayirdi meni bir yo‘lda xon-u mondin.
Gah boshima toj gah baloyi ta’na,
Nelarki boshimg‘a kelmadи davrondin.

2-o‘quvchi: Tole yo‘qe jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi,
Har ishniki ayladim xatolig‘ bo‘ldi.
O‘z yerni qo‘yib Hind sori yuzlandim,
Yorab netayin ne yuz qarolig‘ bo‘ldi.

3-o‘quvchi: Xazon yaprog‘i yanglig‘ gul yuzung hajrida sarga‘ardim,
Ko‘rub rahm aylagil, ey lola ruh, bu chehrai zardim.
Sen ey gul, qo‘ymading sarkashligingni sarvdek hargiz,
Ayog‘ingga tushub bargi xazondek muncha yolvordim.

4-o‘quvchi: Qani shirin bila Laylikи sendin noz o‘rgansa,

Qani Farxodu Majnunkim, alarg‘a ishq o‘rgatsam.
Yoruq Kunduz, qorong‘u kechada anjum kibi bo‘lgay,
Chekib gar oh duduni ko‘ngil o‘tini tutsam

2 – boshlovchi: – Shoir buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ananalarini davom ettirib vatanga muhabbat, insonparvarlik, ma`rifatparvarlik, yorga muhabbat g‘oyalari bilan sug‘orilgan ajoyib asarlar bitdi.

1 – boshlovchi: – U axloq – odob mavzusiga e’tiborni qaratdi. Yaxshilikni ulug‘ladi, xalq manfaatlarini o‘yladi. Inson qadr – qimmatini yuqori tutdi. Odamlarni kamtarin, ko‘rkam fazilatlar egasi bo‘lishga da’vat etdi.

O‘quvchilar shoir ijodidan namunalar o‘qishadi:

1-o‘quvchi: Bu zamonni naf`y qilsam, ayb qilma, ey rafiq,
Ko‘rmadim hargiz netayin, bu zamondin yaxshilig‘.
Dilrabolardin yomonliq keldi mahzun ko‘ngluma,
Kelmadi jonimg‘a hech oromijondin yaxshilig‘.

2-o‘quvchi: Ey ko‘ngul, chun yaxshidin ko‘rdung yomonlig‘ asru
Emdi ko‘z tutmoq ne ya’ni har yomondin yaxshilig‘.
Bori elga yaxshilig‘ qilg‘ilki, mundin yaxshi yo‘q,
Kim degaylor dahr aro qoldi falondin yaxshilig‘.
Yaxshilig‘ ahli jahonda istama Bobur kibi
Kim ko‘ribdur, ey ko‘ngul, ahli jahondin yaxshilig‘.

3-o‘quvchi: Mening ko‘nglumki, gulning g‘unchasidek tah-batah qondur,
Agar yuz ming bahor o‘lsa, ochilmog‘i ne imkondur.
Agar ul qoshi yosiz bog‘ gashtin orzu qilsam,
Ko‘zumga o‘qdurur sarvu ko‘ngulga g‘uncha paykondur.

4-o‘quvchi: Bahoru bog‘ sayrin ne qilaykim, dilistonimning,
Yuzi gul, zulfi sunbul, qomati sarvi xiromondur.
Visoli lazzatidin zavq topmog‘liq erur dushvor,
Firoqi shiddatinda yo‘qsa jon bermaklik osondur.
Boshidin evruler armoni birla o‘ldum, ey Bobur,
Mening na’shimni bori ul pari ko‘yidin aylondur.

1 – boshlovchi: – O‘zining qisqa – 47 yillik umri davomida naqadar buyuk ishlarni amalga oshirgan qudratli davlat barpo etgan, ajoyib asarlari bilan dunyo ahliga tanilgan bobomiz bilan qancha faxrlansak arziydi.

2 – boshlovchi: – O‘zbeklarning bir yaxshi odati bor, qayerga borsa bog‘

yaratadi, go‘zallik bunyod etadi. 1504 yili Bobur Qobulni egalladi. Bu yerda ham u bog‘u rog‘lar yaratishga kirishdi. Aytishlaricha Bobur Qobulda o‘rta bog‘ barpo qilgan. 1508 – 1509 yillarda esa Odinapur qal’asi yaqinida “Bog‘i Vafo” nomli bog‘ bunyod qildirdi.

1 – o‘quvchi: – Aytishlaricha xushbo‘y atirgulni Hindistonga birinchi bo‘lib Bobur keltirgan ekan. Bobur Mirzo tabiat go‘zalligini nihoyatda chuqr xis qiladigan inson bo‘lgan. U o‘zining “Boburnoma” asarida Dashti Shayx qirlari etagida o‘sadigan lolaning 33 xilini aniqlab, yozib qoldirgan.

2 – o‘quvchi: – Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiyotiga har qancha xavas qilsa, undan har qancha saboq olsa arziydi. Bobur hayotida qanday bo‘lgan bo‘lsa, yozgan asarlarida ham shunday: mard, rostgo‘y, tabiiylikni nihoyatda qadrlovchi, samimi tavakkal va zavq sohibidir.

3 – o‘quvchi: – Bobur xalqimizning har jihatdan yetuk iste’dodli farzandi. U (1521) “Zakot bayoni” asari, (1525) “Muxmasar” nomli risola “Xarb ishi”, “Musiqo ilmi” nomli asarlari nafaqat o‘zbek adabiyoti balki jahon adabiyotining nodir namunasi sanaladi. Bobur asarlari orqali, ham shoh, ham shoir, ham olim, ham oshiq, ayni paytda g‘urbat o‘tida bag‘ri yongan bir g‘arib bo‘lib so’zlashadi biz bilan.

4 – o‘quvchi: – Zahiriddin Muhammad Bobur bor yo‘g‘i 47 yil umr ko‘rgan bo‘lsa, shundan 36 yilini uch mamlakatda: Movarounnahrda, 22 yili Qobulda va 5 yili Hindistonda o‘tdi.

1-boshlovchi: – Zahiriddin Muhammad Bobur biz uchun mahobatli bir yulduz. Uning zavq baxsh umri hech qachon so‘nmaydi. Ana shu musaffo nur sizu bizning ong va idrokimiz yorishuviga xizmat qiladi. Bundan qarib 5 asr muqaddam shunday bo‘lgan.

2 – boshlovchi: – Uning asarlari dunyoning ko‘plab tillariga tarjima qilingan. Vatanimizning eng diqqatga sazovor joylari shoir nomi bilan ataladi. Bu kun uning haykali poyida anvoyi gullar yashnab turibdi.

Boshlovchilar: – Mana azizlar! Shu bilan ulug‘ sarkarda iste’dodli shoir Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiga bag‘ishlangan kechamiz o‘z nihoyasiga yetdi. Xayr, omon bo‘ling!

Savol-javoblar

1.Boburning onasi va otasi kim bo‘lgan?

J.Umarshayx mirzo Temurbekka evara - to‘rtinchi avlod, Onasi Qutlug‘ Nigorxonim - Toshkent hokimi Yunusxonning qizi

2.Bobur necha yoshda taxtga o‘tirdi?

J.12 yoshida

3.Bobur qaysi tillarda ijod qilgan?

J.O‘zbek va fors tillarda

4.Bobur “Yod etmas emish kishini mehnatda kishi” deb boshlanuvchi ruboiysini kimga yozgan?

J.Xon dodasi Yunusxonga

5.Boburning soliq ishlarini tartibga soluvchi asari qaysi?

J. “Mubayyin”

6.Boburga necha yoshida Navoiy maktub jo‘natgan?

J.15 yoshida

7. Boburning qaysi she’rlarida uning hayotsevarligi yaqqol aks etgan?

J. “Yoz fasli, yor vasli, do‘srlarning suhbati”, “Sendek menga bir yori vafodor topilmas” g‘azallarida.

8. Qaysi ijodkorlar Bobur haqida asar yozgan?

J.P.Qodirov, B.Boyqobilov, X.Sultonov

9. Boburning qaysi ruboiysida Vatandan yiroq bo‘lganlik, unga intilib yeta olmaslik fojiasi hazil-mutoyiba bilan beriladi?

J. “Hajringda bu tun ko‘ngulda qayg‘u erdi” ruboiysida

10.“Boburnoma”da necha yillik voqealar tushib qolgan?

J.15-16 yillik

11.“Boburnoma” dastlab qanday nomlar bilan atalgan?

J.“Vaqoye”, “Voqeanoma”, “Voqeoti Boburiy”, “Tuzuki Boburiy”, “Boburiya”

12. “Boburnoma”da tilga olingan Ko‘hak suyi qaysi daryoning qadimgi nomi?

J. Zarafshon

13. Bobur “Boburnoma”da Andijon ta’rifida “Elning orasida husn xayli bordir”, -deydi. Husn xayli deganda nima nazarda tutiladi?

J.San’atkorlar

14. “Boburnoma”da peshtoqiga Qur’onning “Va iz yarfa -u Ibrohim -u qavoida ..” oyati yozib qo‘yilgan masjid kim tomonidan bunyod etilgan?

J.Amir Temur

15.“Boburnoma”da “Ul gumbazning o‘rtasida yerga temsalar, tamomi gumbazdin laq-laq un kelur, g‘arib amredur, hech kim muning sirrini bilmas ”, - deb ta‘riflagan imorat nomi?

J.Masjidi Laq-laqa

16. “Boburnoma”da Samarqandning qaysi matosi mashhurligi aytildi?

J.Qirmizi maxmal -qizil baxmal

17. “Boburnoma”da Bobur qaysi kitob haqida “imom Abu Hanifa mazhabida undan mo‘tabbaroq ” kitob yo‘qligini aytadi?

J. “Hidoya”

18.Boburning qaysi g‘azalida muhabbat kechinmalari vatan firoqiga uyg‘unlasib ketgan ?

J. “Mening ko‘nglumki..” g‘azali

19. “Sendek menga bir yori jafokor topilmas” g‘azalining matlasida qanday badiiy san’atlar qo‘llangan?

J. Tashbeh, tazod,tardi aks , tarse

MAKTAB KUTUBXONALARIDA O‘TKAZILISHI MUMKIN BO‘LGAN TADBIRLAR TURKUMI TADBIRLAR

- “Bobur – benazir siymo”
- “O‘zbek xalqining buyuk ajdodi!”
- “Bobur shoh, shoir,davlat arbobi”
- “Zahiriddin Muhammad Bobur me’rosi”

KITOBI KO‘RGAZMALARI

- “Xalq sevgan g‘azalnavis”
- “Ulug‘ adib va alloma”
- “Bobur -g‘azallari o‘lmas ma’naviy xazina”

DAVRA SUHBATI

- “Boburning faoliyati va merosini o‘rganishning ahamiyati”
- “O‘zbek xalqining buyuk ajdodi ”
- “Zahiriddin Muhammad Bobur me’rosi jahon nigohida”

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Zahiriddin,Muhammad Bobur

Devon[Матн]: Z.Muhammad Bobur.Toshkent:1994.

2.Qodirov,Pirimqul

Yulduzli tunlar[Матн]:Qodirov.P -Toshkent:2013.

3.Қодиров,Пиримқұл

Юлдузли тунлар[Матн]:Қодиров.П.-Тошкент:2017.

4. Zahiriddin,Muhammad Bobur

Har kimki vafo qilsa[Матн]: Z.Muhammad Bobur.-Toshkent:2018

5.Захириддин Мұхаммад Бобур

Бобурнома[Матн]:З.Мұхаммад Бобур.-Тошкент:2019

6. Zahiriddin,Muhammad Bobur

Ko‘zidin boshda havodur.[Матн]: Z,Muhammad Bobur.Toshkent:2023